



Bolaning o'rganish va rivojlanish salohiyati  
eng yuksak bo'lgan davr dastlabki uch yildir.  
Fursatni boy bermang!

人生は三歳までにつくられる!

幼稚園では  
遅すぎる\*

Masaru Ibuka

Uchdan keyin  
kech

YAPONIYADA  
ENG KO'P  
SOTILGAN  
KITOB

# Uchdan keyin kech

Nurmukhammad Nargiza  
Hamidulla qizi tarjimasi



Toshkent  
«Akademnashr»  
2019

## Kirish

Qadim zamonlardan buyon noyob qobiliyat, eng avvalo, irsiy, tabiat in'omi deb hisoblanadi. Bizga: "Motsart uch yoshida pianino chalgan" yoki "Jon Styuart Mill lotin tilidagi mumtoz adabiyotlarni ham aynan shu yoshda o'qigan", – desalar, ko'pchiligimiz oddiygina: "Albatta, axir ular daho-ku", deb qo'ya qolamiz.

Ammo Motsart va Millning go'daklik chog'idagi hayoti borasida olib borilgan chuqur tahlillardan ma'lum bo'lishicha, ularning otalari o'z farzandlari buyuk shaxs sifatida kamol topishi uchun natijali tarbiya usullaridan foydalanganlar. Mening fikrimcha, Motsart ham, Mill ham daho bo'lib dunyoga kelmagan. Ularning qobiliyati go'daklikdanoq yaratilgan qulay shart-sharoit va berilgan samarali ta'limdan to'liq rivojlandi.

Aksincha, yangi tug‘ilgan chaqaloq dastlab tabiatiga xos bo‘lmagan muhitda tarbiyalansa, kelajakda uning to‘liq rivojlanishi hamda tabiat in‘om etgan iste‘dodining shakllanishi imkoniyati yo‘qoladi. Eng yaqqol misol “bo‘ri qizlar” tarixi bo‘lib, ular 1920-yilda Kalkutta (Hindiston)dan janubi-g‘arbiy tomondagi g‘ordan missioner va uning xotini tomonidan topilgan opa-singil Amala va Kamaladir. Er-xotin bo‘rilar tarbiya qilgan qizlarga insoniy sifatlarni singdirish uchun qancha urinishmasin, barcha harakatlari behuda bo‘ldi. O‘z-o‘zidan ayonki, odam bo‘lib tug‘ilgan chaqaloq – odam, bo‘rining bolasi esa bo‘ridir. Biroq bu qizlarda insoniy shart-sharoitlarda ham bo‘riga xos qiliqlar namoyon bo‘lishda davom etaverdi. Demak, chaqaloq tug‘ilishi bilan uni o‘rab olgan atrof-muhit va ta‘lim-tarbiya uning kim bo‘lib yetishishini aniq belgilab beradi!

Bu misollar haqida fikr yuritib men yangi tug‘ilgan chaqaloqqa ta‘lim-tarbiya va atrof-muhitning qanchalik kuchli ta‘sir qilishi borasida ko‘proq o‘ylayman.

Bu muammo nafaqat ba‘zi bolalarning, balki butun insoniyatning salomatligi va baxti uchun ulkan ahamiyatga ega. Shu bois 1969-yilda men

“Yaponiya erta rivojlanish uyushmasi” tashkilotini tuzishga kirishdim. Doktor Shinichi Suzukining kichkintoylarga skripka chalishni oʻrgatishga asoslangan va ayni vaqtda butun dunyo eʼtiborini tortgan oʻqituv uslubini oʻrganish, tahlil qilish hamda tatbiq etishni yanada kengaytirish uchun mahalliy va xorijiy olimlar yigʻilib, tajribaviy sinflarida fikr almasha boshladilar.

Ishimiz oldinga siljigani sari bizga bolalar tarbiyasiga anʼanaviy yondashuv naqadar notoʻgʻri ekanligi ayon boʻla bordi. Odatda, biz bolalar haqida barcha narsani bilamiz deb oʻylaymiz. Aslida, ularning haqiqiy imkoniyatlari haqida juda kam tasavvurga egamiz. Biz uch yoshdan katta bolalarga nimani oʻrgatish masalasiga koʻp eʼtibor beramiz. Ammo, zamonaviy tadqiqotlarga koʻra, bu yoshgacha bosh miyadagi hujayralarning 70 – 80 foizi rivojlanib boʻladi. Bu biz oʻz xatti-harakatimizni uch yoshgacha boʻlgan bolalar miyasini erta rivojlantirishga yoʻnaltirishimiz zarurligini anglatmaydimi? Erta taʼlim berish degani chaqaloqlarni raqamlar va har xil maʼlumotlar bilan majburan aqliy rivojlantirishga erishish degani emas, albat. Asosiysi, hamma tajriba va taʼlim usullarini “oʻz vaqtida” joriy etishdir. Buni esa chaqaloqqa tun-u

kun g'amxo'rlik qiladigan onadan boshqa hech kim uddalay olmaydi, aynan ona bola tarbiyasidagi "kerakli vaqt"ni aniq his qiladi.

Biz ta'limni o'qib-o'rganadigan holat deb o'ylaymiz. Lekin maktabgacha ta'lim o'qib-o'rganishdan avvalgi bosqichdagi ta'limdir. "O'z vaqtida" erta ta'limning alohida jihati bo'lib, buni tashkil etadigan shaxs onadan o'zga emas. Albatta, bolaning ta'lim olish mas'uliyatiga javobgar onalar farzandining kelajagi borasida qayg'urib, ularga ko'proq e'tibor qaratish to'g'risida doim o'ylaydilar deb hisoblayman. Shu ma'noda, mazkur kitob ana shunday onalarga ko'maklashish uchun yozildi.

*Muallif*



Birinchi qism

Bolaning  
yashirin  
imkoniyatlari



## **1. Muhim davr**

### **Bog'cha – juda kech**

Ehtimol, har biringiz maktab davringizni yaxshi eslarsiz? Sinfdagi o'tkir zehnlil o'quvchi hech qanday mashaqqatsiz sinf yetakchisi bo'lar, ayni paytda, boshqa bir o'quvchi qancha harakat qilmasin, bilim olishda ortda qolardi.

Mening o'quvchilik paytimda o'qituvchilar bizlarni shunday rag'batlantirar edilar: "Aqllimisan yoki yo'qmi, bu naslga bog'liq emas. Barcha narsa o'z xatti-harakatingga bog'liq". Ammo shaxsiy tajribam a'lochi doimo a'lochi, ikkichi esa doim ikkichi ekanini ko'rsatardi. Xuddi qobiliyat avvaldan belgilab qo'yilgandek. Bu nomuvofiqlikni qanday hal qilish kerak?

Men kelgan xulosa shundan iboratki, insonning qobiliyat va fe'l-atvori tug'ilganida belgilanmay,



**Lituz.com**

**To'liq qismini  
Shu tugmani  
bosish orqali  
sotib oling!**